



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 6-aprel, payshanba,  
41 (23.762)-son

**KUN  
HIKMATI**

Fikrlashni,  
o'ylashni, o'z  
hayotingizni tahlil  
qilishni o'rganing,  
aks holda biroving  
fikriga ergashib  
yuraverasiz

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

# KONSTITUTSIYA – MENIKI, SENIKI, BIZNIKI!

## ISLOHOTLAR ZAMIRIDA – INSON MANFAATI

**Kecha viloyatimizda “Yangi O‘zbekiston - yangi Konstitutsiya” shiori ostida “Ma’naviyat festivali” boshlandi.**

Taniqli shoir va yozuvchilar, poytaxtdan kelgan san'atkorlar hamda “Ma’rifat” targ'ibotchilari ishtirokidagi tadbirlar Toyloq, Samarqand, Past Darg'om, Nurobod, Payariq tumanlari va Kattaqo'rg'on shahrida o'tkazildi.

Tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi shu'ba mudiri Abduxalil Mavrolov, tarix fanlari doktori, professor, “Ma’rifat” targ'ibotchilari jamiyati a'zosi Dilorom Bobojonova hamda tuman-shaharlardagi mahalla, umumta'lim maktabi ziyolilari, faollari hamda yoshlar qatnashdi.

Festival davomida Konstitutsiyaviy qonun loyihasi

bo'yicha referendum haqida so'z yuritilib, yangilanayotgan Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati tushuntirildi.

- Yangilanayotgan Konstitutsiyada insonga e'tibor, uning qadrini ulug'lash, har bir fuqaroga g'amxo'rlik qilish masalasi davlat va jamiyatning asosiy burchi ekanligi mustahkamlanib qo'yilmoqda, - dedi Dilorom Bobojonova. - Bu islohotlar zamirida insonlarning farovon yashashi, kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish, bir so'z bilan aytganda, inson manfaati yotibdi.

Bu kabi tadbirlar viloyatning barcha tumanlarida tashkil etiladi.



## SAMARQANDDA FRANSUZ ALYANSINING VAKOLATXONASI OCHILADI

**Mamlakatimizda mehmon bo'lgan Fransiya Prezidentining maslahatchisi Izabel Dyumon xonim boshchiligidagi delegatsiya 4 aprel kuni Samarqandga tashrif buyurdi.**

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov bilan uchrashuv chog'ida O'zbekiston-Fransiya munosabatlarini mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

- Fransiya O'zbekistonning Yevropadagi muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi, - dedi viloyat hokimi. - Bu tarixan qaror topgan do'stona munosabatlarimiz samarasidir. Samarqandga Yevropadan keladigan sayyohlarning katta qismi Fransiya hissasiga to'g'ri keladi. Biz ushbu davlat bilan savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda hamkor-

lik aloqalarini yanada rivojlantirishga tayyormiz.

Yuqori martabali mehmon ushbu tashrif ikki davlat prezidentlari Shavkat Mirziyoyev va Emmanuel Makronning uchrashuvlarida erishilgan kelishuvlar tufayli yanada mustahkamlanganini ta'kidladi.

- Mazkur uchrashuvlarimiz O'zbekiston Prezidentining o'tgan yil noyabr oyi oxirida Parijga qilgan tashrifining mantiqiy davomidir, - dedi Izabel Dyumon. - Prezidentimiz Emmanuel Makron bilan ajoyib uchrashuv o'tkazdi, ko'plab muhim masalalarni muhokama qildi. Fransiya Prezidenti vakili sifatida O'zbekistonga tashrifim munosabatlarimizni yanada mustahkamlashga qaratilgan. Samarqandda bo'lish mening eng katta orzularimdan biri edi. Bu tarixiy shahar sivilizatsiya va madaniyat markazidir.

Shuning uchun Samarqandda madaniyat va til sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish niyatidamiz. O'tgan yil noyabr oyida Parijda ikki davlat rahbarlari Samarqandda Fransuz Alyansining vakolatxonasini tashkil etish masalasini muhokama qilgan edi. Tashkilotning vazifasi fransuz tili va madaniyatini butun dunyoga yoyish, madaniyatlar muloqotini rag'batlantirishdan iborat. Tashrifim davomida ushbu loyihani amalga oshirishga kirishamiz.

Uchrashuvda faol siyosiy muloqotlarni davom ettirish, o'zaro savdo hajmini oshirish, Fransiyaning yetakchi kompaniya va banklari bilan “yashil” energetika, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, suv ta'minoti, transport va turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi yo'nalishlarda birgalikdagi loyihalarni amalga oshirish zarurligi qayd etildi.

## TAYINLOV

**Egamonov Akram O'rozqulovich** - O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining buyrug'i bilan Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.



**Eshonqulov Shoxruh Sobir o'g'li** - O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyrug'i bilan viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari - mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.



**Rajabov Abror Sattorovich** - viloyat “Bozorlar va savdo komplekslari” uyushmasining umumiy yig'ilishi bayoni bilan viloyat “Bozorlar va savdo komplekslari” uyushmasining raisi lavozimiga tasdiqlandi.



## Inklyuziv ta'lim nima degani?

**Rivojlangan davlatlarda nogironligi bo'lgan shaxslar ham davlat ta'lim tashkilotlarida o'z tengdoshlari bilan birga ta'lim oladi. Bu har bir shaxsning teng huquqliligi kafolatidir. Bolalar maktabdagi nogironligi bo'lgan o'z tengdoshlarini shaxs sifatida to'g'ri qabul qiladi, ya'ni ularning us-tidan kulib, kamchiligini aytib, masxara qilmaydi. Aksincha, ularga yordam beradi, hurmatini joyiga qo'yadi. Ko'cha-ko'yda ham nogironligi bo'lgan shaxslar bemalol, tortinmasdan jamoat transportidan foydalanган holda ko'zlagan manziliga bora oladi. Davlat tashkilotlarida ham sog'lom odamlardek mehnat qiladi.**

Yangi Konstitutsiya loyihasining 50-moddasida ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi belgilanmoqda. Bu norma alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning jamiyatga moslashishiga yordam beradi. Shuningdek, fuqarolarning ham nogironligi bor kishilarga nisbatan munosabatlarini o'zgartiradi. Xo'sh, viloyatimizda qancha maktabda inklyuziv ta'lim sinflari mavjud?

- 2021-2022-o'quv yilidan boshlab maktablarda inklyuziv ta'lim yo'lga qo'yildi, - deydi maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi o'quvchilarni kasbga o'rgatish va psixologik shu'ba mudiri Xurshid G'oziyev. - Inklyuziv ta'lim sinfi ochishdan oldin o'sha sinf o'quvchilari yangi qabul qilinayotgan o'quvchining nuqsonini aytmasligi, mazax qilmasligi, unga nisbatan iliq munosabatda bo'lish lozimligi tushuntiriladi. Shuningdek, inklyuziv sinf birinchi qavatda bo'lishi, kirish joylarida to'siqlar bo'lmasligi, bolaning erkin kelib-ketishiga sharoit yaratilgan bo'lishi kerak.

Ayni kunda inklyuziv ta'lim berilayotgan Samarqand shahridagi 81-, Jomboy tumanidagi 23-, Toyloq tumanidagi 30-, 53-, 25-, Past Darg'om tumanidagi 75-, Qo'shrabot tumanidagi 26-, Urgut tumanidagi 154-, Oqdaryo tumanidagi 47-, Ishtixon tumanidagi 8-, Samarqand tumanidagi 31-, 37-umumiy o'rta ta'lim maktablarida 20 nafar alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar o'qiyapti.

Boshlang'ich sinfda bir nafar alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola bo'lsa, sinf rahbariga 10 foiz qo'shimcha ustama, 2 nafar bola uchun 20 foiz, 3 nafar bola bo'lsa, 30 foiz, 4 nafar bola uchun 40 foiz ustama puli beriladi. Bitta sinfda bunday bolalar to'rt nafardan oshmasligi kerak.

Shuningdek, kelgusi o'quv yilidan maktablarda maxsus pedagog, degan shtat ochiladi. Maxsus pedagoglar aynan alohida ta'lim ehtiyojli bo'lgan bolalar bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari bilan ham shartnomalar imzolandi. Pedagogika sohasida ta'lim olayotgan talabalar amaliyot o'tash uchun maktabga kelib, alohida ta'lim ehtiyojli bo'lgan bolalar bilan shug'ullanishi yo'lga qo'yiladi.

Agar boshqa hududda alohida ta'lim ehtiyojli bor bola bo'lsa, ehtiyojdan kelib chiqib, o'sha hududdagi maktabda ham inklyuziv ta'lim sinfi ochish mumkin.

Bundan tashqari, viloyatda jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan 1689 nafar o'quvchi yakka tartibda uyda ta'lim olmoqda.

Yangi Konstitutsiya loyihasiga kiritilayotgan inklyuziv ta'lim alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Ular ham shaxs sifatida ta'lim olish, o'qib-o'rganish hamda davlat va jamiyat rivojiga hissa qo'shish huquqiga ega.

**Xurshida ERNAZAROVA.**

## Urgutliklar Nukusda yangi korxonalar tashkil etmoqchi

**Qoraqalpog'iston Respublikasini har tomonlama rivojlantirish, aholi uchun yangi ish o'rinlari va munosib turmush sharoiti yaratish, mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishga ko'maklashish maqsadida mamlakatimiz hududlari ushbu mintaqadagi tumanlarga birlashtirilgan edi.**

Jumladan, Samarqand viloyati Nukus tumanini o'z tajribasi asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yordam berib kelmoqda. 2022-yilda mazkur tumanida urgutlik tadbirkorlar ko'magida bozor va savdo kompleksi tashkil etilgandi. Ayni paytda bu yerda Urgutda tayyorlangan kiyim-kechak, maishiy texnika va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotilmoqda. Ayrim tadbirkorlar esa nukuslik ishbilanmonlar bilan hamkorlikda ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini yo'lga qo'ydi.

Bu ishlarni davom ettirish maqsadida Urgut tumani hokimi B.Jabborov boshchiligidagi yana bir guruh tadbirkorlar Nukusda bo'lib, joriy

yilda amalga oshiriladigan loyihalarni mahalliy hokimlik va tashabbuskorlar bilan muhokama qildi.

Muhokama davomida urgutliklar ko'magida Nukusda o'nga yaqin korxonalar tashkil etish kelishib olindi. Shuningdek, savdo kompleksida aholining talab va taklifidan kelib chiqib, qo'shimcha savdo va maishiy xizmat turlarini yo'lga qo'yish, yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlari mavjudligi qayd etilib, zarur chora-tadbirlar belgilandi.

- Bugungi kunda Nukusda korxonamizda ishlab chiqarilayotgan trikotaj mahsulotlari sotilmoqda, - deydi Urgut tumanidagi “ALFA MAX ALLIANCE” mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Javlon Saidmurodov. - Lekin biz bu bilan cheklanib qolmay, bu yerdagi shart-sharoit va imkoniyatlarni o'rganib, shu yerda ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yishga qaror qildik. Nasib etsa, joriy yilda 1 million dollarlik loyiha asosida paypoq ishlab chiqarish korxonasini tashkil etamiz.

Safar davomida Urgut va Nukus tumanlari hokimliklari mas'ullari hududdagi ijtimoiy masalalarni hal etish yuzasidan ham chora-tadbirlar belgilab oldi.

### AMALDAGI KONSTITUTSIYADA

**24-modda.**

*Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqaasd qilish eng og'ir jinoyatdir.*

**25-modda.**

*Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.*



**25-modda.**

*Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqaasd qilish eng og'ir jinoyatdir.*

*O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi.*

### KONSTITUTSIYAVIY QONUN LOYIHASIDA

**27-modda.**

*Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlab chiqarish chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart.*



↓ Qaror va ijro

# Keksalar hayoti – yoshlar uchun ibrat

**Mamlakatimizda keksa avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ularni sog'lomlashtirish ishlarini samarali tashkil etish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ijtimoiy hayotdagi faolliklarini oshirish uchun keyingi yillarda ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi.**

Davlatimiz rahbarining joriy yil 11-mart kuni imzolangan "Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu boradagi navbatdagi muhim qadam bo'ldi.

Qaror bilan O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar jamg'armasi"ni rivojlantirish bo'yicha yetti ta ustuvor yo'nalish tasdiqlandi.

"Nuroniylar jamg'armasining Vasiylik kengashi tashkil etildi. Hokimlar mazkur jamg'arma bo'limlari Vasiylik kengashlari raisi etib belgilandi. Endilikda mahalla fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylik ishlari bo'yicha maslahatchisi "Keksalar maslahati" guruhi raisi hisoblanadi.

"Nuroniylar jamg'armasi bo'limlari rahbarlariga bir vaqtning o'zida tegishli viloyat va tuman (shahar) hokimlarining maslahatchisi maqomi berildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolar yig'ini huzuridagi jamoatchilik tuzilmalari to'g'risida"gi namunaviy Nizomda "Keksalar maslahati" guruhiga rahbarlik fuqarolar yig'ini tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan edi. Yuqorida qayd qilinganidek, bundan keyin ushbu "Keksalar maslahati" guruhiga mahalla fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylik ishlari bo'yicha maslahatchisi raislik qiladi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan 2021-yilda "Bir nuroniylar besh nafar yoshga murabbiy" loyihasi amalga oshirilgan edi. Bu tashabbus amalda o'zining ijobiy samarasini ko'rsatdi. Shu sababli davlatimiz rahbarining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan har bir mahallada "Bir nuroniylar o'n nafar yosh" loyihasi amalga oshirilmoqda.

Mazkur tashabbus asosida 2022-yilda tumanimizdagi 172 nafar ijtimoiy faol nuroniylarimiz 1424 nafar uyushmagan va muammo-lik, ishsiz, tarbiyasi og'ir, ma'naviy ko'makka muhtoj hamda profilaktik hisobda turadigan yoshlarga biriktirilib, tegishli ishlar amalga oshirildi.

Yangi qaror bilan esa "Bir nuroniylar o'n yoshga mas'ul" tamoyiliga muvofiq, yoshlar har bir mahalladagi hayotiy tajribaga ega bo'lgan, zamonaviy fikrlaydigan faol nuroniylarga biriktirilishi belgilab qo'yildi.

Bunda mahallalardagi yoshlar yetakchilari "Keksalar maslahati" guruhlari bilan birgalikda shakllantirilgan ro'yxat asosida o'n nafar uyushmagan va muammo-lik yoshlar nuroniylarga biriktiriladi. Boy hayotiy tajribaga ega ziyoli, hunarmand, tadbirkor, fermer va boshqa soha vakillari bo'lgan nuroniylar hududlardagi barcha ta'lim muassasalariga mas'ul bo'ladi.

Bundan tashqari, "Nuroniylar har bir oilaga mas'ul" loyihasi asosida oilalardagi ahillik, tinchlik va osoyishtalikka ta'minlash maqsadida muammoli oilalarning har biriga "Keksalar maslahati" guruhlarning bir nafardan a'zolari biriktiriladi.

Ushbu hujjat bilan Nuroniylar jamoatchilik kengashlari qaroriga binoan "Bir nuroniylar o'n yoshga mas'ul" tamoyili hamda "Nuroniylar har bir oilaga mas'ul" loyihasi asosida faoliyat olib borgan va ijobiy natijalarga erishgan nuroniylarni "Nuroniylar jamg'armasi mablag'lari hisobidan rag'batlantirib borish tizimi joriy etilmoqda.

Keksa avlod vakillari tomonidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Nuroniylar jamoatchilik kengashi va "Keksalar maslahati" guruhi tomonidan:

- nuroniylarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid qonunchilik hujjatlari, davlat dasturlarida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi;



## TOYLOQDA AHOLIGA QANDAY QULAYLIK YARATILYAPTI?

Aholi farovonligini oshirish yo'lida qilinayotgan ishlar natijasini Toyloq tumani misolida ham ko'ryapmiz

**Prezidentimizning 2022-yil 25-oktabrdagi "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, tumanda mahalla infratuzilmasini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, 10,2 milliard so'mlik 15 ta loyiha amalga oshirilishi belgilangan.**

Jumladan, 9 ta ichimlik suvi obyektini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ko'zda tutilgan.

Ayni paytgacha rejada ko'zda tutilgan Bog'ichinor mahallasida 2,8 kilometr tarmoq tortish ishlari to'liq bajarilgan bo'lib, Galabotir, Qo'shchinor, Vorsin, Navbahor mahallalaridagi qishloqlarda 4 ta yangi suv inshooti qurish va 13,8 kilometr tarmoq tortish ishlari yakuniga yetkazilmoqda, - deydi "Samarqand suv ta'minoti" MCHJ tuman filiali bosh muhandisi Siroj Yo'ldoshev. - Shuningdek, Ukrach, Xonchorbog' mahallalarida 2 ta suv inshootini rekonstruksiya qilish ishlari olib borilmoqda. Mazkur hududlarda 4,4 kilometr ichimlik suvi tarmoqlari tortish ishlari bajarilmoqda. Shuningdek, mazkur qaror asosida Bog'izog'on, Beklar mahallalarida 2 ta suv inshooti mukammal ta'mirlanib, 8,9 kilometr

tarmoq tortish ishlari amalga oshirilmoqda.

Hozirgacha ichimlik suv tarmoqlari o'tkazilgan xonadonlarda suv hisoblagichlar ham o'rnatildi. Dastur asosida mazkur qurilish-ta'mirlash ishlariga 6,96 milliard so'm mablag' ajratilgan.

Manzilli dasturga asosan, tuman hududida 4 ta obyektidagi 5,3 kilometr yo'lni asfaltlash ishlari ko'zda tutilgan bo'lib, buning uchun 2,78 milliard so'm ajratish belgilangan. O'tgan besh oy davomida toyloqlik yo'lsizlar tomonidan Xo'jayuz mahallasidagi qabristonga boradigan 900 metr, Charog'bon mahallasidagi A.Dehotiy, Hamid Olimjon, Bunyodkor ko'chalaridagi 2 kilometr yo'l to'liq asfalt qilindi. O'rtaqishloq qishlog'ida 1,1 kilometr va Gulobodddagi 1 kilometr yo'l asfaltlandi.

Tumandagi Bunyodkor mahallasining 3 ta qishlog'ida va Nurafshon mahallasining bir qator qishloqlarida bugungi kunda yaroqsiz holatdagi simyog'ochlarni 200 ta yangi temir-beton ustunlarga almashtirish ishlari davom etmoqda. Shuningdek, Bog'ichinor mahallasida 64 ta temir-beton ustun o'rnatilib, 160 kVt quvvatga ega yangi transformator qo'yildi. 2,7 kilometr yopiq SIP kabellar tortish ishlari olib borilmoqda.

- Elektr ta'minotidagi uzilishlar qator yillardan buyon hammamizning asabimizga tegib keldi, - deydi mazkur mahallada yashovchi Said Shodiyev. - Uzilishlarga nafaqat simyog'ochlar-

ning esirib ketganligi yoki transformatorning quvvati yetmay qolganligi, balki yildan-yilga aholi xonadonlari ko'payib borayotganligi ham sabab bo'layotgan edi. Bir necha bor yuqori tashkilotlarga murojaat qildik. Nihoyat, o'zgarishlar boshlanib, elektr ta'minoti ham izga tusha boshladi.

Biroq tumanda dasturda belgilangan barcha ishlar to'liq amalga oshirilmayotganini ko'rish mumkin. Jumladan, asfalt qilingan yo'l yoqalarida beton ariqlar o'rnatilmagan. Ichimlik suvi o'tkazilgan hududlarda kovlangan asfalt yo'llar qayta ta'mirlanmagan.

- Manzilli dastur tuzishda tuman bo'yicha 250 ta loyiha kiritish taklif qilingan edi, - deydi tuman hokimligi bosh mutaxassisi Xurshid To'xtayev. - Biroq muammolari ko'p bo'lgan mahallalar uchun o'ta muhim bo'lgan 15 ta yirik loyiha qabul qilingandi. Hozirda belgilangan barcha obyektlarda bajarilgan qurilish-ta'mirlash ishlari 85-90 foizni tashkil etyapti. Ko'zda tutilgan muddatda amalga oshirish uchun hali vaqt bo'lsa-da, kamchiliklarni joriy yilning aprel oyida tugatishga qaror qilganmiz.

Toyloqda aholiga qulay sharoitlar yaratish maqsadida olib borilayotgan ishlar mutasaddilar oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. Buning uchun ko'p ter to'kish lozim.

**Dilmurod TO'XTAYEV, "Zarafshon" muxbiri.**

**Shu kunlarda ko'cha-ko'yda openbudgetga ovoz yig'ayotgan insonlarga ko'zingiz tushayotgani tayin. Bitta ovozga bitta peps yoki pul mukofotini taklif qilayotganlar maktab o'qituvchilari? Shu savolga javob topish maqsadida Qo'shrabot tumanida kichik bir so'rovnoma o'tkazdik.**

## OPENBUDJET

qo'shrabotliklarni qiziqtirib qo'ydi

Ushbu izlanish jarayonida tuman maktablari targ'ibotchilarining seminariga bordik. Seminar boshlanish oldidan targ'ibotchilarga openbudgetga ovoz yig'ishda faolroq bo'lish hamda bu yilgi openbudget uchun tumandagi maktablarga sport anjomlari olish masalasi qo'yilganligi aytildi. Hozir har bir targ'ibotchiga ellikdan ovoz yig'ib kel deydi, deb turgandik. Unday bo'lmadi. Tuman mutasaddilari tomonidan ushbu masala bo'yicha tegishli tushunchalar berildi. Maktablarga sport anjomlari olish uchun openbudgetga ovoz berish istagini bildiradigan shaxslar uchun targ'ibotchilarga linklar tarqatildi. Bu linkni kengroq tarqatish uchun telegram tarmoqlaridagi guruhlarga yuborishi mumkinligi va bu yo'l bilan ovozlar soni oshishi ehtimoli borligi tushuntirildi.

Qo'shimcha sifatida shuni aytilish lozimki, o'tgan yili Qo'shrabot tumani maktablar uchun musiqa asboblari olish masalasi bo'yicha openbudgetda g'oliblikni qo'lga kiritgan edi. Shuning hisobidan tumandagi har bir maktabga musiqa asboblari yetkazib berilgan edi. Bundan shijoati oshgan qo'shrabotlik yoshlar egzu maqsad yo'lida birlashib, ovoz yig'ayotgan bo'lsa ajab emas. Ko'chalarda ovoz yig'ayotganlar esa o'z tumanlaridagi o'zgarishlar uchun hissasini qo'shishni xohlayotgan ko'ngillilar ekanligi ma'lum bo'ldi. Bunday vaziyatda xalqning birlashgani albatta, yaxshi. Ijtimoiy tarmoqlarda "o'qituvchilar ovoz yig'ish uchun majburlanyapti" qabilidagi fikrlar ozgina bo'rttirish, qurmba.

**Adiba QURBONBOYEVA, SamDU filologiya fakulteti talabasi.**

## Zulayho Mahkamova: Endi xato qilishga haqimiz yo'q!



Axborot asrida turli g'oyalari va ularni singdirishga urinishlarga keng imkoniyatlar mavjud bir paytda insoniyatni tanazzuldan asrab turuvchi odamiylik mezonlari, milliy qadriyatlarini asrash oson ish emas.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xonadon a'zolaridan birma-bir hol so'lash, ularning yashash tarzi, sharoitini o'rganish, kayfiyatidan boxabar bo'lish orqali muloqotga kirishish asosiy yo'nalishga aylandi. Bu targ'ibotni ham, ta'sir vositasi vazifasini ham jamlagan holda odamlarning ruhiyatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Diniy va dunyoviy bilimlarga ega onaxonlardan iborat targ'ibot guruhlari ham aynan shu maqsadda faoliyat boshlagan edi. Ushbu guruh a'zolari katta auditoriyalarda balandparvoz yig'ilishlar o'tkazmadi, bil'aks ayollar, oilalarning ahvolidan boxabar bo'ldi, zarur bo'lganda ularga ko'mak berdi.

Samarqandda mahallalarda xotin-qizlarning faolligini oshirish yuzasidan o'tkazilgan qo'quv mashg'ulotida targ'ibot guruhi a'zolari, oila va xotin-qizlar boshqarmasining shahar, tuman bo'limlari faollari ishtirok etdi. Yig'ilishda Bosh vazir o'rinbosari Zulayho Mahkamova ham qatnashib, o'z fikrlarini bildirdi.

- Ma'naviy bo'shliq bor joyda albatta, turli yot g'oyalari, qarashlari o'rin egallashga harakat qiladi, - dedi Z.Mahkamova. - Mustaqillikning ilk yillarida, hali ko'pchilik kommunistik mafkuradan ajralolmay turgan bir paytda yuzaga kelgan bo'shliq afsuski, aholiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Yaxshi niyatda dunyoga ochilgan eshikdan o'z manfaatini o'ylagan, oxiri jinoyatga

olib boradigan oqimu qarashlar kirib kela boshladi. Bu o'z navbatida uzoq yillar davomida odamlarga ta'sir ko'rsatdi. Xatoliklar, adashishlar bo'ldi. Ammo bu holatlar yana takrorlanmaydi, deya kafolat bera olmaymiz. Bugungi axborot asrida har daqiqa hushyorlikni boy bermasligimiz kerak. Endi xato qilishga haqimiz yo'q.

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, xotin-qizlarning ilm olishi, hunar egallashi yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarining barchasi aslida nafaqat ularning turmushini yaxshilash, balki hayotga teran nigoh bilan qarashi, oilaviy muammolarini ham yengishda ma'naviy qarashlari tosh bosishiga erishuvdan iboratdir. O'tgan yili 17 mingdan ziyod oilalarga uy ajratilishida ko'mak berilgani, tadbirkorlik qilaman, degan xotin-qizlarga 4 trilion so'mga yaqin mablag' ajratilgani va boshqa ko'plab raqamlar aynan shu maqsadga qaratilganidir.

Anjumanda shuningdek, viloyatda xotin-qizlarga yaratilayotgan sharoitlar va buning natijasida oilalardagi o'zgarishlar, mavjud muammolar, ularning yechimini topishda targ'ibot guruhi faollarining o'rni haqida fikr-mulohazalar bildirildi. Xotin-qizlar o'rtaida ijtimoiy-ma'naviy muhtini mo'tadillashtirishga qaratilgan targ'ibot guruhiga jamoatchilik asosida yangi rahbar, Samarqand shahridagi 17-umumta'lim maktabi direktori Dilfuza Husanova tayinlandi. Bosh vazir o'rinbosari Z.Mahkamova shuningdek, tadbirkor ayollarni o'qitish markazi faoliyati bilan ham tanishdi, tadbirkor ayollar murojaatlarini qabul qildi.

**Gulruh MO'MINOVA.**

## Xodimning roziligisiz oyligidan ushlab qolish holatlari ham bor

**?** Ko'pincha bizga aytmasdan oyligimizdan ushlab qolishadi, keyin so'rasak, turli vajlarni keltirishadi. Aslida sudning qarorisiz xodimning oyligidan ushlab qolish mumkin emas-ku.

**I.JAVOXIROV, Kattaqo'rg'on shahri.**

Qonunchilikka ko'ra, xodimning yozma roziligisiz oyligidan ushlab qolish holatlari ham bor. Bular:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini undirish uchun;
- sudning qarorlari va boshqa ijro hujjatlarini ijro etish uchun;
- ish haqi hisobiga berilgan avansni ushlab qolish uchun, xo'jalik ehtiyojlariga, xizmat safarlariga yoki boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan berilgan bo'lib, sarf qilinmay qolgan va o'z vaqtida qaytarilmagan avansni ushlab qolish uchun

hamda hisob-kitobdagi xatolar natijasida ortiqcha to'langan summani qaytarib olish uchun;

- hisobidan xodim ta'til olib bo'lgan ish yili tugamasdan turib mehnat shartnomasi bekor qilinganda;
- xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash uchun, agar yetkazilgan zararni miqdori xodimning o'rtacha oylik ish haqidani ortiq bo'lmasa;
- xodimga intizomiy jazo sifatida qo'llangan jarimani undirish uchun ish haqidani ushlab qolinishi mumkin.



## HUQUQIY MASLAHAT

## Kafil kredit qarzini to'lashga majbur

**?** Yaqin tanishim bankdan 30 million so'm kredit oldi, mendan kafil bo'lishimni iltimos qildi. Men rozi bo'ldim. U kreditini o'z vaqtida to'lamayapti, mening plastik kartamdan esa kredit qarzdorligi yechib olindi. Shu to'g'rimi? **Sh.ABDUG'AFUROV, Samarqand shahri.**

Kafillik shartnomasiga rozilik berish, boshqa shaxs o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga olish degani.

Bu, oddiy qilib aytganda, kimgadir kafil bo'lish orqali "olaver, to'lolmasang, men kafilman", degani. Bank hodimlari kafillik shartnomasiga ko'ra, asosiy qarzdor kredit qarzini to'lay olmagani taqdirda kredit majburiyatini kafilga qisman yoki to'liq

miqdorda yuklashi mumkin.

Shu o'rinda savol tug'iladi, unda kafil qarzdorning qarzini to'lab yuraverishi kerakmi?

Agarda kafil kredit bo'yicha qarzdorlikni to'lagan bo'lsa, sudga da'vo qilib, qarzdordan to'lagan to'lovini foizi bilan qaytarish va ko'rgan zarari o'rnini qoplab berishni talab qilishga haqli.



Bugun nafaqat davlat oliy ta'lim muassasalarida, balki xususiy oliy ta'lim dargohlarida ham xotin-qizlar ta'limi uchun maxsus imtiyozlar yaratilmoqda. Xususan, yangi avlod muhandis-texnologlarini tarbiyalash maqsadida yaqinda tashkil etilgan Samarqand xalqaro texnologiya universitetida ham ehtiyojmand xotin-qizlarga universitet muassislaridan e'tibor qaratilmoqda.

Joriy o'quv yilida universitet homiylar kengashi va "Eriell Group" boshqaruvi raisi, O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, asrash va ommalashtirish bo'yicha

## Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar ham oliy ma'lumotli bo'ladi

Butunjahon jamiyati Vasiylik kengashi raisi Baxtiyor Fozilov davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatga mos ravishda uch nafar talabaga grant ajratdi. Ulardan biri tadbirkorlik va menejment yo'nalishi talabasi Hilola Ergashevadir.

- Samarqand xalqaro texnologiya universitetiga farrosh bo'lib ishga kirgan-

- deydi Hilola Ergasheva. - To'g'risi, ushbu universitetda talaba bo'lishni tasavvur ham qilmagandim. Sababi, bolaligim qiyinchilikda o'tgan. Jomboy tumanidagi kichik bir qishloqda tug'ilganman, yoshligimda otam vafot etib, bobom va buvimning qaramog'ida ulg'aydim. Taqdir ekan, yaqinda turmush o'rtog'im bevaqt olamdan o'tdi va go'dak qizim

bilan qoldim. Shundan so'ng hayot uchun kurashishga bel bog'ladim. Ushbu oliy o'quv yurtining talabasi bo'lishni maqsad qilib, universitet qoshida tashkil etilgan tayyorlov maktabida matematika va ingliz tilidan bilim oldim. Bu nufuzli oliygohning talabasiga aylanish va universitet Vasiylik kengashi raisi tomonidan ajratilgan grant sohibasi bo'lish men uchun, qolaversa, ota mehriга to'yimgan jazzi qizim uchun Yarattirgan katta in'omidir.

Ilmga intiluvchan, fikrlashga va ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishga harakat qiladigan farzandlarini tarbiyalashda oliy ma'lumotli ayolning hissasi katta bo'ladi. Donishmandlar "Bitta qiz bolani o'qitsangiz - butun oilani o'qitgan bo'lasiz", deb bejiz ta'kidlamaganlar.

Asila IBRAGIMOVA.



"Yashil makon" umummilliy harakati doirasida "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filialining shahar va tumanlar bo'limlariga tegishli hududlar obodonlashtirilib, 14500 ta mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi.

Jumladan, Samarqand shahar Farhod shaharchasida "Gazchilar bog'i" barpo etildi.

Safarali AZIZOV,  
kasaba uyushmasi boshlang'ich tashkiloti raisi.

## Viloyatdagi kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi Samarqand shahrida

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitining tobora kengayishi kichik biznes subyektlari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Natijada keyin yillarda deyarli barcha tarmoqlarda kichik biznes subyektlarining ulushi ortdi.

Raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat reestri bazasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning 1-mart holatida Samarqandda 39 ming 312 ta kichik tadbirkorlik subyekti (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu raqamni sohalar kesimida tahlil qilsak, savdo sohasida 16328 ta, sanoatda 6823 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2913 ta, qurilishda 2767 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3774 ta, tashish va saqlash xizmatida 1055 ta, axborot va aloqa xizmatida 736 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 883 ta va boshqa sohalarida 4033 ta kichik tadbirkorlik subyekti to'g'ri keladi. Hududlar kesimida olib qaraydigan bo'lsak, ularning asosiy qismi Samarqand shahrida (12946 ta, viloyatdagi ulushi 32,9 foiz) joylash-



Shuningdek, Urgut tumanida 3031 ta (7,7 foiz), Samarqand tumanida 2931 ta (7,5 foiz), Past Darg'om tumanida 2871 ta (7,3 foiz) kichik tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda.

Furqat ZULFIQOROV,  
viloyat statistika boshqarmasi bo'lim boshlig'i.

REKLAMA, E'LOMLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiy lashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-168-son qaroriga muvofiq, davlat va davlat ishtirokidagi korxonalar bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari hamda ulushlari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan davlat mulki obyektlari bo'yicha

## SAVDOLAR E'LON QILINADI

T/r	Obyekt nomi	Balansda saqlovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumiy yer maydoni (ga.)	Bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni (kv.m.)	Savdolarga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm)	Savdo sanasi	Arizia berishning oxirgi muddati
1	Bo'sh turgan qurilishi tugallanmagan bino	Oqdaryo tumani hokimligi	Samarqand viloyati Oqdaryo tumani, "Boshdarxon" MFY, Qirqdarxon ko'chasi, 34-uy	2,23	12 229,12	8 609 025 000,0	05.05.2023 y.	05.05.2023 y.
2	Sobiq TYFUK bo'limi binosi	Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi viloyat hududiy boshqarmasi	Samarqand viloyati Narpat tumani, "Mang'it" MFY, Boltaboy ko'chasi, 186/1-uy	0,015	130,5	75 187 000,0	05.05.2023 y.	05.05.2023 y.
3	Bo'sh turgan gaz ta'minoti filiali binosi	Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi viloyat hududiy boshqarmasi	Samarqand viloyati Past Darg'om tumani, "Go'zalkent" MFY, Obod qishloq, 65-uy	0.45	390,76	381 641 200,0	05.05.2023 y.	05.05.2023 y.

#### Auksionda qatnashish tartibi to'g'risida:

Ushbu obyektlarni "E-IJRO AUKSION" yagona elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi qoshidagi "Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish markazi" DUKning "e-auksion.uz" sayti maydonchasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolar qatnashish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalar bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar davlat xizmatlari markazi yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

#### Auksionda qatnashish uchun ariza berish:

Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqamli imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "e-auk-

sion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsiy kabinet"lari orqali kirib, o'tkaziladigan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli obyektni tanlashi va u haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkka tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar bino haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov hujjatida auksiondagi LOT raqami ko'rsatilib kerak) holda auksion savdosida qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirokchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolangan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirokchining "Shaxsiy kabinet"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabari keladi. Auksion savdosida qatnashish uchun ariza berish saytda ko'rsatilgan mud-

datda to'xtatiladi.

#### Auksion jarayoni:

Ishirokchilar tomonidan savdoga qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng, savdo boshlanadigan kunda (vaqtda) ishtirokchilar "e-auksion.uz" saytida maxsus login va parollarini tergan holda "Shaxsiy kabinet"ga kiriladi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksion tanlanadi.

Shunda dastur tomonidan "Ishirok etishni tasdiqlash" so'raladi, ishtirok etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionda qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqam beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadamga oshirilgan narxda sotib olish bo'yicha taklifni tasdiqlashni so'rashdan boshlanadi. Agar, taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirokchilaridan

biri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana 10 daqiqaga uzaytiriladi.

Agar, tasdiqlangan oxirgi taklifdan so'ng 10 daqiqa davomida keyingi oshirilgan LOT narxi bo'yicha taklif auksion ishtirokchilarining birortasi tomonidan tasdiqlanmasa, savdo auksion natijalari haqidagi bayonnomani avtomatik tarzda shakllantirgan holda yakunlanadi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion g'olibi deb topiladi. Shundan so'ng ishtirokchiga g'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta jo'natmasi orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnomasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirok etgandan so'ng g'olib bo'lmagan ishtirokchilarga zakalat pullarini ishtirok-

chilarning elektron tarzda bergan arizalariga asosan ko'rsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyingi savdolar qatnashish uchun o'tkazilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun manzil: Samarqand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlari muvofiqlashtirish bo'limi.

Ma'lumot uchun telefonlar:  
66-233-96-64, 99-447-17-70  
Faks: 66-233-73-54

"Facebook"dagi rasmiy sahifa:  
Sam Dav Aktiv

Veb-sahifa: privatization.davaktiv.uz  
Internet tarmog'idagi veb-sayt:  
samarqand@davaktiv.uz



## HURMATLI HAMKASBLAR, SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI BITIRUVCHILARI!

Shu yil 5-6-may kunlari "SamMI bitiruvchilarning II Forumi" o'tkaziladi (rasmiy tadbirlar 6-may kuniga rejalashtirilgan).

Tashkilotchi "SamDTU va SamMI bitiruvchilari assotsiatsiyasi".

Tadbirga O'zbekiston, yaqin va uzoq xorijda istiqomat qilayotgan turli yillardagi bitiruvchilar uchrashuvi rejalashtirilgan.

Forumda ishtirok etish sizga ustozlaringiz, hamkasblaringiz bilan uchrashish, kasbiy va hayotiy muvaffaqiyatlar bilan o'rtoqlashish imkonini beradi.

Forumdagi iliq va do'stona muhit ishtirokchilarga muloqot qilish, ijodkorlik va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi.

Forumda ishtirok etish istagida bo'lgan bitiruvchilar quyidagi telefon raqamiga murojaat qilishlari mumkin:

+99897-399-44-35

#### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Axmedov Asrorga (2023-yil 22-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Mixlibayev Ixam Tatlibayevichga (2020-yil 26-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Axmedova Dilbar Uvaytovnaga (2022-yil 17-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 41/100-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrirolovna notarial

idorasida marhum Turakulov Karim Yaxyayevichga (2018-yil 3-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrirolovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Obidov Suxrob Fayzullayevichga (2020-yil 29-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Temirova Xadichaga (2013-yil 4-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Saftarova Xosiyat Melikovnaga (2021-yil 23-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova

Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Sobirov Baxodir Yakubovichga (2022-yil 5-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Anonullayev Telman Fatullayevichga (2016-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Kurbanov Berdiga (2021-yil 13-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Safarov Rasulga (2018-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrirolovna notarial idorasida marhum Arxarov Burxonaga (2002-yil 22-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrirolovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

BEKOR QILINADI  
"NUR BOG'I ADIBXON" ishlab chiqarish kooperativining (STIR: 307380425) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



O'tgan asrning 30-yillarida minglab odamlar qatori soxta ayb, nohaq tuhmatlar bilan qatag'on qilish oilamizni ham chetlab o'tmagan. Otamiz Abdulqodir Azizov (Jome') bobomdan 7 yoshida yetim qol-gach, qiynalib voyaga yetganiga qaramasdan, bilim olishga, ma'rifatli bo'lishga intildi, boshqalarni ham ilmiy qilishni o'zining burchi, deb bildi. Samarqand shahridagi Ko'k masjid mahallasida sahnof (muqovolovchi) Yusufjon ustaga shogird tushib, shu hunarni o'rgan-di. 1907-yilda hofiz Hoji Abdalaziz Abdurasulov xonadoni qarshisi-dan sahnoflik do'konini ochdi.

# Qatag'on va quvg'ing'larga qarshi matonatli kurashdi

Bu kasb otamga ko'plab kitoblarni mutolaa qilishiga imkon yaratdi. Akademik Botirxon Valixo'jayev shunday xotirlaydi: "Bu do'kon Naqibxon To'g'ral, Vasliy, Ajziy, Qori Masehoi Tamhid kabi zamonaning yetuk kishilari kelib suhbatlar, mushoiralar o'tkazadigan joy bo'lib qolgan edi. Bu maskanning ovozi keng tarqalganidan so'ng, ularga yoshlar ham kelib qo'shilib, davradan bahramand bo'lish-gan".



Shu tariqa ilmlilarga havas qilgan otam 1918-yilda ma'rifatparvar Ismatilla Rahmatullayev va Ivanov tashabbusi bilan Samarqand shahridagi o'qituvchilarni qayta tayyor-lash kursiga o'qishga kirdi. Tahsilni bitirgach, eski shahardagi Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi kutubxonaga (Regis-ton ko'chasi 36-uy) mudir etib tayinlandi.

1924-yildan jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi Abdulqodir Shakuriy-ning uy-maktabida o'qituvchilik qildi. Keyinchalik shahardagi 4, 9, 11, 21-o'rtta maktablarda, jismoniy tarbiya texnikumi-da yoshlarga til va adabiyot fanidan dars berdi.

Yosh avlodni savodli, ziyoli qilib tarbiyalash borasidagi sa'y-harakatlari tufayli otam elning nazariga tushdi, Domla Jome' taxallusi bilan she'r va g'azallar yozdi.

Otamning ma'rifatni ulug'lab, odamlar orasida keng tashviqot ishlarini olib borishi sho'ro siyosatdonlariga yoqmad.

1937-yilda otamga tuhmat uyushtirilib, "sovetlarga qarshi tashviqot olib borgan"-lik aybi qo'yilib, 8 yil qamoqqa saqlandi. Qamoqqa olingan paytda otam Samarqand pedagogika akademiyasi filologiya fakulteti kechki bo'limining 3-bosqich talabasi edi.

Tutqunlik kunlarining birida otam o'zbek adabiyoti romanchiligi asoschisi Abdul-la Qodiriy bilan Toshkent hibxonasida yuzlashdi.

1945-yilning 31-mayida qamoqdan ozod qilingan otamga maorif sohasida ishlashga izn berilmadi. Shu bois kombinat artelida qorovullik qildi. Ammo o'qish va ijod qilishdan to'xtamad.

Sobiq ittifoqning "qatag'on qilichi" o'tgan asrning 50-yillarida ham ma'rifatparvar, ziyoli kishilarimiz boshida o'ynadi. 1950-yilning 22-noyabrda otam ikkinchi marta qamoqqa olinib, dahshatli azoblarga duchor bo'ldi va 25 yilga hukm qilindi.

Qiyonoq va azoblarda irodasi bukilgan otam o'sha mash'um kunlarni shunday eslaydi: "Ikki sutkalab ovqat yemasdik, uchinchini kuni "selyodka" berilar, ammo suv berilmadi. Kiyimsiz holatda 12 sutkagacha "karser"ga qamab qo'yishardi. Yarim ke-chasi tergovchi chaqirib, stulning orqasiga qo'limgi qayirib bog'lar, bo'lmag'ur savollar berib, qilmagan ayblarimga iqrar bo'lishni talab qilar, tuhmatlarini rad etganimda tarsaki urib, boylog'liq stul bilan ag'anatib tepishar, beton polga urilib boshim qonga belanganiga ham qaramay, qiynoqni davom ettirardi. Hushimdan ketsam, suv sepib o'zimga keltirar va yana tergovni boshidan boshlar, ertalabgacha azob be-rishni to'xtatmas edi. Hatto o'lim ko'yilagini

Nadir AZIZOV.

# G'aybulla as-Salom uyimizda mehmon bo'lgan

Olijanob, fidoyi inson, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor, filologiya fanlari doktori G'aybulla Salomovning adabiyotimiz, umuman ma'naviyatimizga qo'shgan beqiyos hissasi ko'pchiligimizga ma'lum. Olim, ustozlarning ustози bo'lmish G'aybulla as-Salom o'nlab kitoblar muallifi bo'lishi barobarida juda ko'p xayrli ishlarga qo'l urgan olimlardan biri hisoblanadi. Jizmon qishlog'ida yashab o'tgan Yo'ldosh ota (taxallusi Ibn Davlat) yozib qoldirgan devonni topishda ham buyuk olimning katta xizmatlari bor. Bu kitob "Tamaddun" nashriyotida 2019-yil nashr etilib, kitobxonlarga yetkazilgan. Bu-xoro madrasalarida tahsil olgan, Urgut madrasasida ta'lim bergan, mumtoz adabiyot yo'nalishida boy meros qoldirgan, XIX asr oxiri, XX asr o'rtalarida yashab o'tgan, Kat-taqo'rg'on adabiy muhitining yorqin namoyondalaridan bo'lgan Ibn Davlat ijodini o'rga-nish uchun G'aybulla as-Salom uzoq vaqt ijodkor yashab o'tgan qishloqda tadqiqot olib bordi, devonini tiklashda hissa qo'shdi.



Ustoz olim bilan yoshligimda, aynan yuqorida nomi keltirilgan kitob qah-ramoni haqida izlanish olib borgan payti tanishganman. 1976-yilning yoz faslida G'aybulla as-Salom do'sti, qishloqdoshimiz Nor-mamat hoji bobonakiga mehmonga boradi. Normamat bobo imorat qurayot-gan bo'lgan. Ustasi esa otam, usta Norman edilar. Olim bizning uyda ham mehmon bo'lgan. Otamga atab she'r yozib, katta davrada o'qib bergandilar. Otam oliy ma'lumotli bo'lmasa-da, ilmiy qadrlaydigan inson edilar. O'z ishi-ning ustasi sifatida uyushtirishda dong taratgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsat-gan fan arbobi, professor Faybulla as-Salom otamning ishini ko'rib, u kishini "uyushtiruvchi professori", deb ta'riflagan ekan. "Ota timsoliga sadoqat - farzandlarga duoyi xayr, qavm-qarindoshlarga mehr-oqibat, ma'rifatda barkamollik, elaro fazlu karam, o'zaro lutfu ehtirom. Sizga ham shular yor bo'lmog'ini tilayman, aziz kitobxon", deb yozgandi

otam to'g'risidagi kitobning kirish qismida ustoz G'aybulla as-Salom. Chunki Jizmonni juda yaxshi bilgan domla, izlanish olib borgan yillari shu qishloq ahli bilan aka-ukadagi bo'lib ketganlari u kishining kamtar va oddiyligidan darak beradi. G'aybulla aka hayot bo'lganida shu yil 90 yoshga kirar edi. U kishi o'zbek tarjimonshunosligi, ayniqsa, tarjima nazariyasining asoschilaridan biri sifatida tarixda qoldi. Mustaqil O'zbekistonimiz ilm-fani ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan, xalqimizning ilmiy-badiiy tafakkuri rivojiga ko'p tomonlama zamin yaratgan G'aybulla as-Salom nomi o'zi tug'ilib o'sgan Xatirchi tumanidagi maktab yoki kollejlardan biriga qo'yilsa, ayni muddao bo'lar edi, deb o'ylayman. Zayniddin NORMAN, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

## Musohaba

# FAROSAT TUG'MA FAZILATMI?

Professor Mamayunus Pardayev va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Farmon Toshev suhbat



o'zi past qilib qo'yadi.

**M.P.:** Ayrimlar kibrdanmi, jahldanmi, bilma-dim, ba'zan salomlashishni ham ko'rishmaydi.

**F.T.:** Inson nafratlanganda salomlashishni ham o'ziga ep ko'rmaydi. Biroq bunday odatni haddan ko'p takrorlab bo'lmaydi. O'zimizga ham boshqa-lardan shunday munosabat bo'lishi mumkin.

**M.P.:** Odami nima ko'proq lanj va dangasa qilib qo'yadi?

**F.T.:** Oson narsaga intilish ishtiyoq va hafsa-lani o'ldirib boraveradi.

**M.P.:** Bifarfqlik nima? Bularda xolislik bo'ladimi?

**F.T.:** Atrofdagi voqealarga munosabat bildirmaslik, jim turish hamma vaqt ham xolislik emas, noshudlilik yashirishdir.

**M.P.:** So'z bilan musobaqa o'ynab bo'ladimi?

**F.T.:** So'zda bahslashganlar o'rtasida hech qachon o'lib bo'lmaydi.

**M.P.:** Hamma ma'rifatli bo'lishni xohlaydi, ammo bu darajaga hamma erishmaydi. Nima uchun?

**F.T.:** Ma'rifatni aytmoq uchungina emas, uni tinglamoq va hazm qilmoq uchun ham ma'rifatli bo'lmoq lozim.

**M.P.:** Xushomadgo'ylar nima uchun oramizda ko'payib bormoqda?

**F.T.:** Xushomadgo'y o'z yolg'oni va maqtovlari bilangina kun ko'ra olishini unutmang, uning ha-yotdan boshqa manfaati yo'q. Kim manfaati uchun yashayotgan bo'lsa, uning xushomaddan boshqa ishi ham yo'q. Xushomadga barham berishning yo'li uni hazm qilmaslikdir.

**M.P.:** Agar insonda farosat va sezgi bo'lmasa, ahvol ne kechgan bo'lardi?

**F.T.:** Ko'zing ochiq ersa, dunyoni ko'rarsan oshkor, Bildiradi tiling qaysi ta'mda maza bor, Qulog'ingga kelgay barcha sadolar bisyor, Ammo bo'lmasa agarda ko'ngilda sezging, Ko'r, kar qolursan, sezgingning barchasi bekor.

**M.P.:** Odatda tavba qilgan odam komil bo'la-di, komil insonlar ilmi bo'lishlari zarur, degan gapga nima degan bo'lar edingiz?

**F.T.:** Tavba qilmoqlik uchun avvalo, iqrar kerak, Komilikka zakovat, bilimga takror kerak.

**M.P.:** Jaholat hamisha bor narsa. Bundan doi-mo himoyalab turish uchun nima qilmoq kerak?

**Farmon Toshev:** Domla, siz garchi iqtisodchi olim bo'lsangiz ham, ko'p yillardan buyon pub-litsistikada, hatto badiiy ijodda qalam tبراتasiz, ya'ni inson ruhiyatini o'rganasiz. Siz bilan shu haqda suhbatlashish niyatim bor edi.

**Mamayunus Pardayev:** Aslida ziyoli degan so'zning o'zi insonning ma'naviyatini anglatadi. Chunki falsafa, tarix, adabiyot haqida tushuncha-ga ega bo'lmalik yoki unga qiziqmaslik ziyolilikni anglatmaydi. Qoralamalarim esa, eng avvalo, kitoblardan o'qib olgan taassurotlarim va hayotiy tajribam natijasidir. Binobarin, men sizda ham inson ruhiyatini chuqurroq o'rganish harakatini ko'raman.

**F.T.:** Ijodkorning vazifasi kishilarga dunyoni anglashga yordam berish, ya'ni nuqtai nazar shakllantirish. Odamlar e'tiborini bir masalaga jalb etish uchun ularni ana shu masala yechimiga ishtonimoq kerak.

**M.P.:** Fikringizga qo'shilaman, ammo glo-ballashuv jarayoni inson ruhiyatini ham o'zgartirib yubordi. Bugunning odami katta asarlarni, hatto katta axborotlarni ham hafসা bilan o'qimaydi. Shu sababli tajribamizga tayanib, mavzu yuzasi-dan quvvai hofizamizga yarasha ixcham iboralar orqali fikrlashsak, degan edim. Binobarin, kamina-da ham, sizda ham bu uslub shakllangan.

**F.T.:** To'g'ri aytasiz, domla, bundan uch yilcha muqaddam ikkalimiz ana shu uslubda uyushtirgan suhbat ko'p nashrlarda e'lon qilindi. Bu orada mening "Tafakkur manzaralari", sizning esa "Ma-mayunus Pardayevdan saboqlar" kitoblarimiz chop etildi. Umuman, odamlar ruhiga oyatlar, hadislar, maqol va naqlar, iboralar orqali ta'sir o'tkazish adabiyotimizda ilgari bor janr. Faqat biz uning qudratidan foydalanmayapmiz.

**M.P.:** Bizda "ishlagan odam xato qiladi", degan ibora yuradi. Ayrim qusurlarga ham ana shu nuqtai nazardan yondashamiz, xatosini kechiramiz.

**F.T.:** Albatta, beyab Parvardigor. Ishlagan odam xato qilmaydi, ishlagan xato qiladi. Bu bor gap, biroq nazariyada har qanday ishga ham xato qilishim mumkin, deb yondashish mas'uliyatni susaytiradi. Buni hayot ko'rsatyapti.

**M.P.:** Bu gapingizga qo'shilaman. Mas'uliyat yo'qlar o'zi qilishi kerak bo'lgan ishi ham biroq aytmagunicha bajarishmaydi. Turtkiga o'rgangan odam mexanik soatga o'xshaydi, dam solib tur-masang, ishlamaydi.

**F.T.:** Masalan, men shunday tushunaman: qumursqa, asalari, chigirtka va yana boshqa ko'plab jonzorlar o'z saffalarini kasal, haromxo'rlar-dan o'zlarini tozalaydi. Vaholanki, Xudo bergan aqlimiz bo'lishiga qaramasdan, biz, odamlar bu borada ancha orqadamiz.

**M.P.:** Bilasizmi, nodon kishi o'zining zo'rligidan maqtangisi kelsa, hech imkoniyat top-magan pallada nima qiladi?

**F.T.:** Agar u nodon bo'lsa, atrofdagilarga o'z kuchini ko'rsatish uchun avval o'z o'toviga olov qo'yarkan. Bu shuhratparstlik kasali.

**M.P.:** Alamzadalikni qanday davolash mumkin va uning ruhiyati qanday bo'ladi?

**F.T.:** Alamzadalik aslida davolanadigan illat emas, uning faqat oldini olish mumkin. Chunki alamzada odam ko'z o'ngidagi hammadan qasd olishga intiladi. Bir kishidan alamini olsa ham tinchmaydi. Shu sababli birovning alamini kelti-rishdan asranmoq lozim.

**M.P.:** Qanday odamlar o'zini boshqara oladi va mos ravishda o'zi bilan kurasha oladi?

**F.T.:** Faqat ilmiy, farosatli, tarbiyali odamgina o'z fikri bilan kurasha oladi. Aks holda, u nuquq boshqalar bilan bahslashadi.

**M.P.:** Odamlarda nafratlanish bor. Nafratsiz yashashning imkoni yo'qmi?

**F.T.:** O'zini boshqara olmaganalarda ortiqcha nafratlanish bo'ladi. Bu insondagi ezgu fazillatlarni xira torttiradi, nafratlanaganlar oldida o'z obro'sini

**MATBUOT UYI**

Zarafshon

С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 612 nusxada chop etildi. Buyurtma 180. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:** A.SHERXOLOV.

**Navbatchi:** X.ERNAZAROVA.

**Sahifalovchi:** B.ABDULLAYEV.

Bosishga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda